

**MUNIS AL- XORAZMIY “SAVODI TA’LIM” ASARINING DIDAKTIK
AHAMIYATI**

*Yoqubova Mavludaxon Shavkatbek qizi
Andijon davlat chet tillar instituti talabasi
+998932790376*

*Abdullahjonova Tursunoy Ixtiyorjon qizi
Andijon davlat chet tillar instituti talabasi*

*Parpiyeva Diloroxon Murodjon qizi
Andijon davlat chet tillar instituti talabasi*

Annotatsiya. Bu maqola Munis al xorazmiyning “Savodi ta’lim” asari bo‘yicha didaktik qarashlar ahamiyatini axloqiy tushunchasini yoritib beritishga asoslangan.

Tayanch so‘zlar: rostgo‘ylik, savodxonlik, ta’lim-tarbiya, hayot yo‘li, din, mehr-oqibat, yaxshilik.

Eng avval “Savodi ta’lim” asarini yoritishdan oldin uni yozgan shaxsning hayoti va ijod yo‘li haqida bir oz suxbatlashsak.

Shermuhammad Avazbiy o‘g‘li Munis XVIII asrning XIX asr 1-yarmida Xorazm madaniyatining atoqli namoyondasi bo‘lib, ta’ lantli shoir, tarixchi, tarjimon, xattot va ma’rifat namoyondasi sifatida el orasida shuhrat qozongan.

Xayot yo‘li haqida. 1778- yil Qiyot qishlog‘i Xorazm viloyati Mirob oilasida dunyoga kelgan, ushbu Alloma dastlabki ta’limni qishloqdagi mакtabda oladi so‘ngra qolgan qismini madrasada davom ettiradi.

“Men Munis, Xivada yashovchi yuz toifasidan bo‘lgan Amir Eshimbiyning avlodidandurman”, deb yozadi o‘zining tarjimayi holida.

Uning ustozi Sayyid Eshonxo‘ja edi. Arab, fors, turkiy xalqlar adabiyoti shuningdek klassik muzika hamda tarix fanlarini qunt bilan o‘rganadi. U xattot, kufiy, ruhoniy, xatti shikasta kabi xatlarni yaxshi bilgan. Uning mashhur asarlari: 1804- yil “Savodi ta’ lim”, “Munis ul ushshoq” (Oshiqlar do‘sti) 16892 misradan tashkil topgan devon yaratadi. Firdavs ul iqbol (Baxt bog‘i) Eltuzarxon ham (1804-1806) yilda Xorazm tarixini bitishini topshiradi va bu asarni tugata olmaydi. Uni davomini jiyani Ogahiy yozib tugallaydi. Uning otasi 1800-yilda vafot etadi va uning ishini o‘g‘li 22 yoshda bo‘lgan Munis qo‘lida qoladi. Uni xon saroyiga taklif qiladi va 1812-yil amakisi Erniyozbiyni vafotidan so‘ng u butunlay shaharga (mirob) etib tayinlanadi. “Ulfat”, “Hamdam” ma’nosи bo‘lgan Munis Nizomiydan toki Lutfiygacha bo‘lgan shoirlarni ijodi bilan oshno bo‘lgan. Shermuhammad Munis Xorazmiy 1829- yil (Vabo) kasalligi bilan vafot etadi.

Ijod yo‘li.

Munis, talab et kamol erursan chu yigit

Kim yaxshidir etsa afzal

Bil uchun qayg‘u yigit

O‘q qilg‘on ishin yo qila bilmas hargiz,

Qarilar ila barobar o‘lg‘aymu yigit.

Deb atalgan misralarni qog‘ozga mohirona joylagan. Shoir endi bunday she’rlarini 1815- yilda “Munis ul – ushshoq” nomli she’riy to‘plamga jamladi va devon tuzdi. “Firdavs ul – iqbol” (Baxt bog‘i) asarini yozdi. XV asr tarixchisi Mirxondning “Ravzat us – safo” asarini o‘zbek tiliga tarjima qiladi. Uning yana bir yirik asari ya’ni 1804-yilda yozilgan “Savodi ta’lim” alifbo sifatida foydalanish uchun yozilgan kitob. Bunda: chiroli xat yozish usullari bayon etilgan.

Risola II qismidan iborat bo‘lib, birinchi qismida xat mashq qilishga tayyorgarlik va bu uchun kerakli bo‘lgan asboblar to‘g‘risida so‘z yuritilgan bo‘lsa, ikkinchi qismda xat yozishda harflarning yozilishiga e’tibor berish va xatni chiroyli xusunkor yozish qoidalari tushuntirilgan. Shuningdek xatni xatosiz yozishning tarbiyaviy ahamiyatga quydagi so‘zlar ila izohlaydi: “Xatidin o‘lub xujasta ta’lim, Ta’lim fani xatiga taslim Sharmanda xati sabzxatarlar, xolofoti xatida nuqtalar. Ta’lim berur na bir raqamdin xat yozmoq ishi yeti qalamdin.” Ya’ni xat yozishda nafaqat xat balki bir so‘z yozishda har bir harfdan tortib toki unga qo‘yilgan nuqta va vergul hattoki xatda kelishi mumkin bo‘lgan raqamlargacha e’tibor berilishi kerakligi haqida so‘z boradi.

Munis ijodida odob axloq, qonun va qoidalarga amal qilish birinchilardan bo‘lib o‘rin egallaydi. Bundan tashqari uning she’riy to‘plamlarida nohaqlikga qarshilik, adolatsizlikka, xalqqa cheksiz mehr muhabbatda bo‘lishlik, diniy qarashlarni kengligi haqida alohida urg‘ular berib o‘tilgan. Uning har bir asari, she’rlari va tarjima qilgan asarlari bunga yaqqol misol bo‘ladi.

Misol uchun, Ey do‘s tani zarim aro jonim eding,

Iqlimi muhabbat uzra sultonim eding

Xush keldingu jonimda nishiman qilding.

Xush borki,base aziz mehmonim eding!!!

Munis o‘z davrining buyuk tarjimoni va she’riyat olmida o‘z o‘rnini mustahkam qoldirib ketdi. Bundan tashqari u o‘z zamonasida qilgan yetuk ishlari hozirgi kunda ham biz uchun juda kerakli foydali bo‘lib kelmoqda. Chunki o‘scha zamondagi ilm fanga foyda keltirgan yangilik hozirgi kunda ham biz uchun foyda keltirmoqda. Bu esa bizga eng manfaatlari bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi J. Xoliqovning “ Munis Xorazmiyning “ “ Savodi Ta’ lim “ asarining didaktik ahamiyati.
2. Xodjayev B.X. Umumiy Pedagogika nazaryasi va amaliyoti Toshkent -2017.
3. Xasanboyev I.J. va boshqalar Pedagogika nazaryasi va tarixi, Toshkent -2021.
4. Madaminjonovna M. M. K. L. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES. Retrieved from <http://xn--e1aaifpcds8ay4h.com.ua/menus/view/202/>.
5. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 92-94. Retrieved from <http://www.econferences.ru/index.php/arims/article/view/5122>.
6. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. – 2022. – С. 7128-7131. Retrieved from <https://provinciajournal.com/index.php/telematique/article/view/984>.
7. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL “INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY”. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 63-65.
8. Мирзакаримова М. М. Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 97-103. Retrieved from <https://paper.researchbib.com/view/paper/251614>.
9. Madaminjonovna M. M. Umumta’lim fanlarini tadbirkorlikka yo ‘naltirib o ‘qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 97-103.
- 10.Мирзакаримова М. М. Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – №. 4. – С. 216-222. Retrieved from <https://paper.researchbib.com/view/paper/251637>.
11. Madaminjonovna M. M. Zamonaviy sharoitlarda umumta’lim fanlarini tadbirkorlikka yo ‘naltirib o ‘qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 216-222.
12. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. – 2023. – Т. 5. – №. 3. – С. 15-17.
13. МИРЗАКРИМОВА М. М. ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙЎНАЛТИРИБ ЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ //Novateur Publications. – 2022. – №. 1. – С. 1-128.

14. MADAMINJONOVNA M. M. XORIJIY TILLARNI TADBIRKORLIKKA YO ‘NALTIRIB O’QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI //Nova. Pub. – 2022. – C. 1-128.
15. Mirzakarimova M. CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O’QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 6. – C. 410-415.
16. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. O’zbekistonda chiqindilarni qayta ishslash muammolarini o’rganish va bartaraf qilish //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 11. – C. 78-83.
17. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 12. – C. 321-324.
18. Mirzakarimova M. M. et al. “Avesto” va pedagogik fikrlar rivoji //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 2. – C. 224-228.
19. Mirzakarimova M. M. et al. Pedagogik mahoratning shakllanshi va rivojlanishi //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 3. – C. 264-269.